

**RAXBAR XODIMLARNING AXBOROT-KOMMUNIKATSION
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Abdullayeva Dilnoza Nosirjonovna, Oriental Universiteti,
e-mail: d.abdullayeva@orinetaluniversity.uz*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ish, umumta'lim maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklarini rivojlantirish usullari va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Dissertatsiyada umumta'lim muassasalari rahbarlarining zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini samarali boshqarish, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish va ularning axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan kreativ yondashuvlarni qo'llash kompetentligi tahlil etiladi. Mavzuga oid tadqiqotlar va adabiyotlardan kelib chiqqan holda, umumta'lim maktab direktorlarining axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi bilimlari, ko'nikmalari va malakalarining hozirgi holati va rivojlanishi zarur bo'lgan jihatlar o'rganiladi. Shuningdek, maktab direktorlarining kreativ yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishdagi muammolar va ularning yechim yo'llari, ta'lim jarayonida tadqiqotda maktab direktorlarining ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, o'qituvchilar va o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashga jalb etish metodikalari kabi mavzular qamrab olinadi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsion texnologiya, orasida so'rovnoma, intervyu, kuzatuv, hujjatlar tahlili, zamonaviy texnologiyalar.

Maktab direktorlarining kreativ va axborot-kommunikatsion kompetentliklari, ularni o'quvchilarni yangi bilimlar va texnologiyalar bilan tanishtirish uchun doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi. Bu madaniyat, o'z navbatida, ta'lim muassasasining barcha ishtirokchilariga namuna bo'lib, mazkur muassasani innovatsion o'zgarishlarga ochiq mazmunli bir joyga aylantiradi. Maktab direktorlarining kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligi, ularni ta'limdagi innovatsiyalarni o'qituvchilar, ota-onalar va hamkor tashkilotlar bilan faol muhokama qilishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, maktab ichida va tashqarisida kuchli hamkorlik muhitini yaratadi, ta'lim sifatining oshishiga hissa qo'shadi.

Kreativ va innovatsion yondashuvlar, jumladan AKTni oqilona qo'llash, maktabni faqat o'quv muassasasi emas, balki mahalliy jamiyatning ma'rifat va innovatsiya markazi sifatida ko'rsatadi. Bu esa, maktablar va ularning atrofidagi jamiyatlar o'rtasida o'zaro ta'sirni yaxshilashga yordam beradi. Kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklarga ega maktab direktorlari xalqaro hamkorlik loyihalari va almashinuv dasturlarida faolroq ishtirok etishlari mumkin. Bunday

hamkorliklar maktablarni global miqyosda ta'lim taraqqiyotining bir qismiga aylantiradi, o'quvchilarga xalqaro madaniyatlar va bilimlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Kreativ va innovatsion yondashuvlar orqali maktab direktorlari texnologiyalarni pedagogik maqsadlar uchun moslashuvchan qo'llay olishadi. Bu, o'quv dasturlarining turli o'quvchilar va o'qituvchi ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshiradi, shuningdek, o'quvchilarning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. COVID-19 pandemiyasi maktablar uchun raqamli ta'limning ahamiyatini yanada oshirdi. Kreativ axborot-kommunikatsion kompetentliklarga ega maktab direktorlari, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarga tez moslasha oladilar, masofaviy va aralash o'qitish usullarini samarali joriy etish orqali ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydilar. AKTdan samarali foydalanish, qog'ozsiz ta'lim, elektron resurslardan foydalanish kabi yondashuvlar orqali, maktab direktorlari ta'lim muassasasining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga hissa qo'shishi mumkin. Bu, o'quvchilarga muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni o'rgatishda yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5099-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-avgustdagi "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini tasdiqlash to'g'risida" 181-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha inspeksiya to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 318-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-maydagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul xodimlari malakasini oshirish va reyting baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 208-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu magistrlik dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Umumta'lim maktab direktorlarini kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayoni rivojlantirish.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta'lim maktab direktorlarini kreativ axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;

ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va uning sifat darajasini ko'tarishdagi mavjud muammolar, umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim faoliyatini takomillashtirishda rahbarning vazifalarini ochib berish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari uchun tavsiya va takliflar tayyorlash;

umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorligiga nomzodlarning maktabni rivojlantirish bo'yicha dastur loyihasini amalga oshirish mexanizmi va yo'nalishlarini ko'rsatish;

malakali kadrlar bilan ta'minlash va pedagoglar salohiyatini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktab direktorlarini kreativ fikrlashi;

mustaqil qaror qabul qilishi;

axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirish;

Kreativ yondashuv asosida direktorlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning ahamiyati va zaruriyati o'rganildi, pedagogik - psixologik xususiyatlari aniqlashtirildi;

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy tavsiyalar maktab direktorlarining kreativ kompetentliklarini oshirish uchun aniq yo'lnoma taqdim etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalari rahbariyatining kasbiy rivojlanishini rag'batlantiradi. Tadqiqot doirasida aniqlangan va taklif etilgan usullar va strategiyalar, ta'lim jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Bunda, AKTdan foydalanish, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, ijodiy muammolarni hal qilish kabi aspektlarda amaliy yondashuvlar qo'llaniladi. Resurslar va trening dasturlarini ishlab chiqishda amaliy yondashuvlar, o'qitish va o'rganish usullarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan resurslar va trening dasturlarini ishlab chiqishga asos bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida, o'qituvchilar va direktorlar uchun AKTni qo'llash bo'yicha tayyorgarlik dasturlarini yaratishda muhim qadam bo'ladi. Qisqasi, bu tadqiqot umumta'lim muassasalari rahbariyatining professional rivojlanishini rag'batlantiruvchi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hamda nazariy asoslar yaratishda muhim o'rin tutadi. Bu esa, kelajakda ta'lim muhitining yanada samarali va zamonaviy bo'lishiga xizmat qiladi.